

BOSH MUHARRIR

Liliya Gaynutdinova

TAHRIR HAY'ATI

Baxtiyor SAIDOV
G'ayrat SHOUMAROV
Rustem REIMOV
Risboy JO'RAYEV
Shaxnoza XALILOVA
Boris BLYAXER
Iroda ABDULLAYEVA
Ayubxon RADJIYEV
Sharibboy ERGASHEV
Feruz QODIROVA

Mas'ul kotib

Sayyora Alimxodjayeva

Adabiy muharrir

Sayyora Alimxodjayeva

Kompyuterda sahifalovchi va dizayn

Mirtohir Xoliqov

Muallifning fikri har doim ham tahririyat fikriga to'g'ri kelavermaydi. Tahririyat maqolalarining uslubiy xatolarini to'g'rilash va qisqartirish huquqini o'zida saqlab qoladi. Tahririyatga yuborilgan maqolalar egasiga qaytarilmaydi va taqriz qilinmaydi.

Mualliflarning familiyasi, ismi, sharifi ularning pasportlari ma'lumotlariga muvofiq holda yoziladi.

Мнение редакции не всегда совпадает с мнением автора. Редакция оставляет за собой право на стилистическую правку и сокращение статей. Присланные в редакцию рукописи не возвращаются и не рецензируются.

Фамилия и инициалы авторов пишутся согласно данным их паспорта.

Muassislar:

O'quvchilarni kasb-hunarga
yo'naltirish va
psixologik-pedagogik
respublika tashxis markazi
"MAKTAB VA HAYOT" M.CH.J.

Jurnaldan ko'chirib bosilganda
"MAKTAB VA HAYOT" dan olindi,
deb ko'rsatilishi shart.

Jurnal 2001 yildan
chiqa boshlagan.

MANZIL:

100095, Toshkent sh.,
Olmazor t., Ziyo ko'chasi, 6A uy.
Tel: (0371) 246-21-02
E-mail: maktabvahayot@sarkor.uz

OBUNA INDEKSI - 1019

MUNDARIJA

I.A.TESHABOEV.

O'zbekiston xalq ta'limida psixologik xizmatning tizim sifatidagi zarurati 2

YU.G'. MAHMUDOV, A.H. ESHQORAEV.

Hissiy intellekt – YEQ, samarador rahbar uchun asosiy ko'rsatkich 4

M.MIRQOSIMOVA.

O'quvchilarda sanogen fikrlashni shakllantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari 6

I.Q.SAYFULLAYEVA.

Bo'lajak logopedlarda kasbiy kompetensiyalar shakllanganligini baholash komponentlari va usullari 8

M.U.XAMIDOVA.

Maktabgacha yoshdagi eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar oilasini korreksion-pedagogik yordamga jalb etish texnologiyalari 10

YU.G'. MAHMUDOV, A.H. ESHQORAEV.

Umumta'lim muassasasining jamoatchilik bilan aloqalari maktab imijini shakllantirish omili sifatida 12

M.ERGASHEVA.

O'qish savodxonligini baholash orqali ta'limdagi muammolarni aniqlash 14

SH.MATUPAYEVA.

Ta'lim klasteri sharoiti - inklyuziv ta'lim samaradorligini oshirishning innovatsion omili 17

J.N.YAKUBOV.

Cheksiz aql mashqi – shaxmat: kecha, bugun, ertaga 18

O.M.ZARIPOV, M.R.XAKIMOV.

Axborotning xavf tug'dirish xususiyati va undan himoyalashning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari 21

B.E.TOSHMATOV.

Psixologik xizmatda suhbat olib borish texnologiyasi 23

B.Q.SUBANOVA.

Kadrlarni inklyuziv kasbiy innovatsion faoliyatga tayyorlashda zamonaviy pedagogik vositalar, metodlar va ta'limni tashkil etish 25

З.П.КЛЫЧЕВА.

Личностное формирование учащихся начальных классов посредством тренинговых занятий 28

S.J.ACHILOVA.

Dizartriya nutq kamchiligiga ega bolalar nutqi ustida ishlashning samarali usullari va innovatsion texnologiyalarning korreksion ta'limda o'rni 30

M.Э.ТАХИРОВА.

Эффективные пути развития речи у детей дошкольного возраста на занятиях логоритмики 32

G.BAYTILEUOVA.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiya jarayonining nazariy asoslari 34

G.X.JUMASHEVA, B.ALPISBAYEVA.

Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablarining mazmun va mohiyati 36

G.R.YUSUPOVA.

O'quvchilarda sog'lom tafakkurni rivojlantirish omillari va sog'lom muhitni shakllantiruvchi pedagogik texnologiyalar 38

M.N.QO'LDASHEVA.

Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya fani asosida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy malakalarini rivojlantirish 40

M.G'.RAMAZONOVA.

G'arb va sharq allomalari merosida san'at va tarbiya uyg'unligining asoslanishi 42

N.X.VOXIDOVA.

Umumta'lim maktablarida tarbiyaviy faoliyatni tashkil etish 44

B.A.AMIRULLAYEVA.

Tabiiy fanlar (science) o'qituvchilarining o'quv-metodik tayyorgarligini takomillashtirish pedagogik muammo sifatida 46



DIZARTRIYA NUTQ KAMCHILIGIGA EGA BOLALAR NUTQI USTIDA ISHLASHNING SAMARALI USULLARI VA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNING KORREKSION TA'LIMDA O'RNI

S.J.Achilova, Chirchiq davlat pedagogika universiteti Maxsus pedagogika kafedrasida pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.

В данной статье освещены эффективные методы работы с речью детей с дизартрией и роль инновационных технологий в коррекционном обучении.

Ключевые слова и понятия: интерактивный метод, инновация, фонетико-фонематическая речь, дизартрия, речевая недостаточность, педагогическая технология, метод.

This article highlights effective methods of working with the speech of children with dysarthria and the role of innovative technologies in remedial education.

Key words and concepts: interactive method, innovation, phonetic-phonemic speech, dysarthria, speech insufficiency, pedagogical technology, method.

Logopedik mashg'ulotlarda yakka tartibda hamda frontal shakllarda, an'naviy usullardan tashqari bolalarning faol harakatlarini tashkil etishga mo'ljallangan interfaol usullar hamda turli ta'lim texnologiyalaridan foydalanish tavsiya etiladi. Maxsus maktabgacha ta'lim tashkilotlarida dizartriya nutq kamchiligiga ega bo'lgan bolalarning fonetiko-fonematik nutq kamchiliklarini bartaraf etishda innovatsion texnologiyalardan foydalanishning muhim omili sifatida mashg'ulotdan ko'zlangan maqsadni to'g'ri shakllantirish lozim. Ya'ni, korreksion maqsadni ko'zlagan innovatsion o'quv muhitining maqsadi— dizartriya nutq kamchiligiga ega bolalar nutqining fonetiko-fonematik tomonini tuzatish orqali bolalarda o'z-o'zini namoyon qilish ko'nikmalarini shakllantirish hamda o'qish motivatsiyasini rivojlantirish eng asosiy maqsaddir.

Nutq kamchiliklarini bartaraf etishda bolalarning nafaqat nutqiy muammolari, balki umumiy rivojlanishidagi to'siqlarni bartaraf etish maqsadidan kelib chiqqan holda vazifalar, tamoyillar va metodlardan keng foydalaniladi.

Korreksion-pedagogik jarayonda umumiy metodlardan keng foydalaniladi, bular og'zaki, ko'rgazmali va amaliy metodlardir.

1. Fanlarni o'qitishda o'quv materialini og'zaki bayon qilish. Bolalar tomonidan bilimlarni o'zlashtirish defektolog logopedning tushuntirishini faol qabul qilish va puxta o'ylash evaziga amalga oshiriladi. Bilimlarni uzatish vositasi sifatida logoped nutqi muhim ahamiyatga ega. Bu o'rinda logopedning bolalar faoliyatiga rahbarligi mavzuni qo'yish, rejani e'lon qilish, bolalar faoliyatini boshqarishdan iborat bo'ladi. Og'zaki metodlar asosida bolalarga hikoya qilib berish, turli mavzularda suhbat, tushuntirish kabi ishlar amalga oshiriladi.

2. Ko'rgazmali metod bu-logoped tomonidan berilayotgan ma'lumotning ko'rgazmali qurollar yordamida yetkazilishidir.

Korreksion jarayonda ko'rgazmali metodlardan foydalanishda samaradorlikka erishishda quyidagi shartlarga amal qilish maqsadga muvofiqdir:

- ko'rgazmalilikning bolalarning yoshi va rivojlanish darajasiga mos kelishi;
- namoyish etilayotgan obyektlar barcha bolalarga yaxshi ko'rinib turishi;

- namoyishda uning boshlang'ich bosqichi va asosiy jarayon (holat)larning ajralib turishi;

- tajribalar namoyishi maket, jihoz, qurollar, mulyajlarni ko'rsatish asosida tashkil etilishi;

- namoyish va illyustratsiya o'quv materialining mazmuni bilan uyg'un bo'la olishi lozim.

3. Amaliy metodlar bolalar tomonidan o'zlashtirilgan nazariy bilimlar yordamida ularda amaliy ko'nikma va malakalarni hosil qilishda alohida ahamiyat kasb etadi.

Dizartriya nutq nuqsonga ega bo'lgan bolalarda kuzatiladigan fonetiko-fonematik nutq kamchiliklarni bartaraf etishda innovatsion texnologiyalardan foydalangan holda ish olib borish orqali logoped o'z oldiga qo'ygan maqsadga erishadi. Bular:

1. Teri sezgirligida mo'ljall olish texnologiyasi. Bunda o'yin va logopedik mashqlar yordamida bolalarni atrof-muhitda to'g'ri mo'ljall olish orqali uning nutq kamchiliklarini bartaraf etish, fonematik eshitish idrokiga va umumiy motorikani va fonetiko-fonematik nutqni rivojlanishiga ta'sir etish ishlari tashkil etiladi. Shuningdek, nutqiy nafas va bioenergo-plastikani rivojlantirish ishlari ham birgalikda olib boriladi.

“Harakatdagi ro‘molcha” texnologiyasi (5-7 yoshli bolalar)

Maqsad: Dizartriya nutq kamchiligiga ega bo'lgan bolalarda to'g'ri mo'ljall olish, og'zaki nutq va umumiy motorikani rivojlantirish hamda fonetiko-fonematik nutqni rivojlantirish.

Texnologiyani qo'llash jarayoni: Logoped bolaning ko'zini ro'mol bilan yopib qo'yadi va bir marta bolani aylantiradi. So'ngra atrofida o'rtoqlari uni chaqiradi. Ko'zlari ro'mol bilan yopilgan bola bir bolani ushlab uni barmoqlari bilan paypaslash orqali kim ekanligini aytib berish so'raladi. Agar to'g'ri topsa bolalar o'rin almashadilar. O'yin shu saylda 25-30 daqiqa davom etadi.

2. Barmoq uchlarining sezgirligini rivojlantirish. Maxsus tanlangan topshiriq va o'yinlar yordamida barmoq uchlarining sezgirligini va nutqni rivojlantirishga qaratiladi.

“Suvni anglash” texnologiyasi (5-7 yoshli bolalar)

Maqsad: Dizartriya nutq kamchiligiga ega bo'lgan bolalarda barmoq uchlarining sezgirligini, barmoqlar harakatchanligi va fonetiko-fonematik nutqni rivojlantirishga qaratiladi.

Texnologiyani qo'llash jarayoni: Bolaning barmoq uchlari avval iliq suvga, so'ng sovuq suvga ketma-ketlikda solinadi va boladan nimani sezgani so'raladi

3. Qum terapiyasi texnologiyasi. Maxsus tanlangan perimetrlar yordamida bolaning barmoqlar harakati va sezgirligini faollashtirish, og'zaki nutqni va fonematik eshituvni rivojlantirish.

"Tandir" texnologiyasi

Maqsad: Dizatriya nutq kamchiligiga ega bo'lgan bolalarda barmoqlar harakati va sezgirligini faollashtirish, og'zaki nutqni, fonetiko- fonematik nutqni rivojlantirish.

Texnologiyani qo'llash jarayoni: Logoped avval bolaga uchburchak, doira, to'rtburchak shakllari tasvirlangan rasmlar kartochkalarni ko'rsatadi. So'ngra boladan ushbu geometrik shakllarni qumda tasvirini hamda qumdan ushbu geometrik shakllarni yasab berishni so'raydi (guruhli mashg'ulot asosida ham olib borish mumkin).

5. Izoterapiya texnologiyasi. Rasm chizish orqali bolaning barmoqlar harakatchanligini, mo'ljal olish malakasi, ko'ruv diqqati, rasmlardan foydalana olish va fonetiko-fonematik nutqni rivojlantirishdan iborat.

"Body texnologiyasi"

Maqsad: Dizatriya nutq kamchiligiga ega bo'lgan bolalarda barmoqlar harakati va sezgirligini faollashtirish, og'zaki nutqni, fonetiko- fonematik nutqni rivojlantirish.

Texnologiyani qo'llash jarayoni: Boladan inson tanasini chizib berish so'raladi va turli xil ranglar bilan bolaning barmoqlari yordamida bo'yash so'raladi. Bolaga texnologiyani bajarish vaqtida nima qilyapsan?, nimalarni chizding?, qanday ranglardan foydalanding? kabi savollar beriladi.

6. "Ranglar terapiyasi" texnologiyasi (5-5,5 yoshli bolalar)

Turli ranglardan to'g'ri foydalana olish malakalarini hamda bola ruhiyatidagi kamchiliklar va nutq kamchiliklari bartaraf etish, barmoqlar harakatchanligi, fonetiko- fonematik nutqni rivojlantirish.

Maqsad: Dizatriya nutq kamchiligiga ega bo'lgan bolalarda barmoqlar harakati, mo'ljal olish malakasi, ranglardan to'g'ri foydalana olish malakasi, nutq kamchiliklari va fonetiko-fonematik nutqni rivojlantirish.

Texnologiyani qo'llash jarayoni: Stol ustiga rangli qalamlar va oq qog'ozlar qo'yiladi. Logoped boladan ushbu qalam va oq qog'ozdan foydalangan holda **"gullar"** rasmini chizib berish so'raydi. Gullar rasmini chizish vaqtida ranglardan to'g'ri foydalana olish malakalariga diqqat bilan e'tibor berish lozim. Ranglarni to'g'ri tanlash va bolaning ichki tuyg'ularni aniqlashga ham yordam beradi. Rasmni tugatgach boladan nimani chizganini va qanday ranglardan nima uchun foydalanganligi so'raladi.

"Animals" texnologiyasi

Maqsad: Dizatriya nutq kamchiligiga ega bo'lgan bolalarda barmoqlar harakati, ichki va tashqi nutqni va fonetiko-fonematik nutqni rivojlantirish.

Texnologiyani qo'llash jarayoni: 1 bosqichda, logoped boladan stol ustiga qo'yilgan rasmlar kartochkalarni nomlab berishini so'raydi, so'ng diqqat bilan hayvonlarning ovozi eshitib farqlab berish asosida rasmlarni qo'li bilan ko'rsatadi. Masalan, mushukning ovozi eshitganda stol ustida mushuk rasmi tasvirlangan kartochkani qo'li bilan ko'rsatadi. 2 bosqichda bola eshitgan hayvonning ovoziga imitatsiya qiladi, ya'ni topgan hayvon ovozi o'zi ovoz chiqarib ko'rsatib beradi.

"Ovozini top" texnologiyasi

Maqsad: Dizatriya nutq kamchiligiga ega bo'lgan bolalarda ichki va tashqi nutqni va fonetiko-fonematik nutqni rivojlantirish.

Texnologiyani qo'llash jarayoni: logoped bolaga diqqat bilan topshiriqni tinglashni so'raydi. Bola o'tirgan holda, logopedni tinglaydi:

"Men senga hozir bir nechta ovozlarni eshittiraman, sen esa bu nimaning ovozi ekanligini aytib berasan. Diqqat bilan meni tingla".

Logoped ovoz chiqaruvchi buyumlarni hamda ovozli tasmani ham eshittiradi va u nimaning ovozi ekanligini so'raydi. Agar bola tushunmasa 2 va 3 marta urinish beriladi.

"Eshitdim, tushundim, bajardim" texnologiyasi

Maqsad: Dizatriya nutq kamchiligiga ega bo'lgan bolalarda ichki va tashqi nutqni va fonetiko-fonematik nutqni rivojlantirish.

Texnologiyani qo'llash jarayoni: 1 bosqichda bolalardan (yakka va guruhli olib borish mumkin) guruhda o'tirgan holda logopedni diqqat bilan tinglash so'raladi. Bolalar yoniga stol ustiga oq qog'oz, rangli qalam va bo'yoqlar qo'yiladi va boladan ularni nomlab berishi, o'yinchoqli konstruktorlarni yig'ib berish so'raladi so'raladi.

Bola eshitib, tushungan holda savolga javob berishi lozim.

Yuqorida keltirilgan texnologiyalardan kelib chiqib quyidagi tavsiyalarni berib o'tish kerak:

1. Dizatriya nutq kamchiligiga ega bo'lgan bolalar bilan ishlashda relaksatsion o'yinli texnologiyalardan foydalanish;

2. Logopedik mashg'ulotlarda sensamotorik rivojlantirishga ta'sir etuvchi adaptiv jismoniy mashqlar tizimidan foydalanish;

3. Dizatriya nutq kamchiligiga ega bo'lgan bolalarda uchraydigan mushak tarangligi, umumiy motorikadagi og'ishlarni korreksiyalashda "SELF korreksiya" yondashuvlaridan foydalanish va bu jarayonga ota-onalarni tayyorlash.

4. Bo'lajak logopedlarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda anamnestik ma'lumotga tayangan holda mashg'ulotlarni rejalashtirishga o'rgatuvchi seminar va mahorat darslardan keng foydalanish tartibini yo'lga qo'yish lozimdir.

Adabiyotlar

1. Ayupova M.Yu. "Logopediya" darsligi, Toshkent-2007 y.
2. Ahmedova Z.M., Ayupova M.Yu., Xamidova M.P. "Logopedik o'yin" darsligi, "Faylasufar" nashriyoti Toshkent 2013 y.
3. Achilova S.J. "Dislaliya. Dizatriya" o'quv qo'llanma, Toshkent – 2021 y.
4. Achilova, S. J. (2020). Dizatriya nutq nuqsoniga ega bo'lgan bolalarda barmoqlar harakatchanligini rivojlantirish yo'llari. *Science and Education, 1*(Special Issue 4), 177-185.
5. Ачилова Севара Жасуркуловна (2020). Особенности логопедической работы при дизартрии в специализированных дошкольных учреждениях. *International scientific review, (LXVII)*, 88-91.